O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUXTAROV FARRUX MUXAMMADOVICH

AXBOROT XURUJI DAVRIDA “KIBERXAVFSIZLIK ASOSLARI” FANINI O‘QITISHNING DASTURIY-METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертатсии доктора наук (DSc)

Doctor of science (DSc) dissertation abstract content

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.2020.Ped.26.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MUXTAROV FARRUX MUXAMMADOVICH

AXBOROT XURUJI DAVRIDA “KIBERXAVFSIZLIK ASOSLARI” FANINI O‘QITISHNING DASTURIY-METODIK TA’MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH

13.00.06 – Raqamli ta’lim nazariyasi va metodikasi

PEDAGOGIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fan doktori (DSc) dissertasiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.3.DSc/Ped981 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) veb-sahifasida www.tdpu.uz hamda “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Abdullayeva Barno Sayfutdinovna** pedagogika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Qayumova Nasiba Ashurovna** pedagogika fanlari doktori, professor
	Sultanova O‘g‘iloy Nabievna pedagogika fanlari doktori, professor
	Abdullayeva Ozoda Safibullaevna pedagogika fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.2020.Ped.26.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27 uy. Tel.: (+99871) 276-79-11, faks (+99871) 276-80-86.

Dissertasiya bilan O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi DSc03/30.01.2020 O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100011, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko‘chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-79-11, faks (+99871) 276-80-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “_____” _____kuni tarqatildi.
(2025-yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Z.N.Mamarajabova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

R.G.Isyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.n., dotsent

M.E.Mamarajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon ta’lim muassasalarida axborot va kiberxavfsizlikni ta’minlash o‘z axborot resurslarini rivojlantirish va himoya qilish, boshqa mamlakatlarning axborot resurslariga ta’sir qilish texnologiyalari amaliyotga tadbiq etilmoqda. AQSH, Rossiya, Yevropa Ittifoqi, Xitoy, Hindistonda tarmoqlardan foydalanishga mas’ul maxsus bo‘linmalar faoliyatini rivojlantirish, kiberxavfsizlik soha mutaxassislarini bilim darajasini oshirish, innovatsion pedagogik usullardan foydalangan holda bo‘lajak mutaxassislarning axborot savodxonligi hamda axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini rivojlantirish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot markazlarida talabalarning axborot va kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, informativ – kognitiv kompetensiyalarni takomillashtirish, kasbiy kompetentlik doirasida izchil tarzda tashkil etishning zamonaviy dasturiy – pedagogik metodologik asoslarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ta’limning zamonaviy didaktik vositalari asosida bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarning takomillashuvini o‘zaro axborot almashinuvi va xavfsizligi bo‘yicha zamonaviy texnologiyalar asosida baholash, kiberxavfsizlik madaniyatini rivojlantirish modellarining samaradorligini oshirish, informativlikka interaktiv tarzda ta’limga keng tatbiq qilish bo‘yicha tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim muassasalarida talaba-yoshlarning axborot xavfsizligi bo‘yicha bilimlar doirasini kengaytirish, axborot texnologiyalari boshqaruvi hamda resurslarning fanlararo integratsiyasini amalga oshirishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ketirilgan “...axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoyalash tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga qarshi o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish”[1] hamda 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 158-son Farmonida keltirilgan “…Internet jahon axborot tarmog‘idan to‘siqlarsiz foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, milliy internet makonida kiberxavfsizlikni ta’minlash hamda fuqarolarning internetdan foydalanish borasidagi savodxonligini oshirish”[2] vazifalari belgilangan. Natijada kiberhujumlarning oldini olish, ularni aniqlash va oqibatlarini bartaraf etishning muqobil imkoniyatlari kengayadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 31-maydagi PQ-167-son “O‘zbekiston Respublikasining muhim axborot infratuzilmasi obyektlari kiberxavfsizligini ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, “O‘zbekiston Respublikasida kriptologiya sohasida ta’lim va ilm-fanni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ-293-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-sonli Farmoni

apreldagi PQ-153-sonli “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etiladigan jinoyatlarga qarshi kurashish faoliyatini yanada kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining. 1 “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy hamda uslubiy ta’minotini takomillashtirish bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish va axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, kriptografik masalalarga zamonaviy yondashuvlar bo‘yicha jahonning ko‘p mamlakatlari ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Jumladan, AQSHning Carnegie Mellon University, Buyuk Britaniyaning University of Oxford va University of Cambridge universitetlari hamda Queen’s University Belfast - CSIT tadqiqotlar markazi, Germaniyaning ATHENE (Darmstadt) - Evropaning eng yirik IT-xavfsizlik markazi, Turkiyaning TÜBİTAK BİLGEM - axborot xavfsizligi va kriptografiya bo‘yicha ilmiy-texnologik markaz, Janubiy Koreyaning Korea University CIST, Xitoyning Tsinghua University, Beijing University of Posts and Telecommunications va boshqa nufuzli universitet, ilmiy-tadqiqot markazlarida mazkur soha va uning o‘qitilishi bilan bog‘liq muammolar o‘z yechimini topib kelmoqda.

Amerika Qo‘shma shtadlarining Carnegie Mellon universitetida IoT xavfsizligi, mashina o‘rganish va AI, tarmoq va tizimlar xavfsizligi, shaxsiylik va maxfiylik yo‘nalishlari bo‘yicha 160 dan ortiq magistr va tadqiqotchilar ilmiy faoliyat olib bormoqda. Tadqiqotchilarining 10%i sohani o‘qitish bo‘yicha shug‘ullanib, asosan metodologiya va dasturiy-metodik vositalarni takomillashtirish bilan bog‘liq faoliyatni olib boradi. Stanford universitetida Stanford Online’da “Advanced Cybersecurity Program” va “Cybersecurity and Executive Strategy” kurslari mavjud bo‘lib, uning faoliyat maqsadi risklarni aniqlash, baholash va strategik javob berish bo‘yicha tajriba oshirishdan iborat. Buyuk Britaniyaning Oxford universitetida “Software and Systems Security”, “Software Engineering” va “Social Science of the Internet” magistratura va doktorantura dasturlari taklif etilgan bo‘lib, dastur doirasida yosh tadqiqotchilar cloud security, steganografiya, formal tasdiqlash, mobil va tarmoq xavfsizligi, kriptografiya sohalarini rivojlantirish va bu sohalarning o‘qitilishiga xizmat qiluvchi dasturiy-metodik ta’minotni takomillashtirish bilan shug‘illanadi, bundan tashqari ijtimoiy va kompyuter fanlarini birlashtirgan OII “Information Governance and Security” kabi sohalarda ijtimoiy kiberxavfsizlik masalalarini ham o‘rganadi. Germaniyada joylashgan ATHENE (Darmstadt) - yevropaning eng yirik IT xavfsizlik markazi 2015 yilda qayta tashkil etilgan bo‘lib hozirda ID raqamli tizimlar hamda kritikal infratuzilmalarni yo‘lga qo‘yish, xavfsizlik, maxfiylik va kiberxavfsizlik sohalarida ilmiy-tadqiqotlar olib boradi. Turkiyaning BİLGEM – 2010 yilda tashkil etilgan bo‘lib,

UEKAE (Elektronika va Kriptologiya), BTE, SGE, İLTAREN, YTE, YZE kabi 6 ta ilmiy institutni o‘z ichiga oladi. Markazning maqsadi kriptologiya, axborot xavfsizligi va ilg‘or elektronika sohalarida milliy darajada, mustaqil va raqobatbardosh texnologiyalar ishlab chiqish, sohaning yetuk mutaxassislarini tayyorlashda Turkiyaning barcha ta’lim muassasalari uchun amaliyotlar jamlanmasi va o‘qitishning amaliyotiga bag‘ishlangan texnologiyalar bilan ta’minlash. Buni yordamida “Kiberxavfsizlik asoslar” va bunga turdosh fanlarning o‘qitilishida amaliyotga asoslangan o‘qitish strategiyasi shakllanadi. Janubiy Koreyaning Korea universiteti tarkibiga kiruvchi CIST markazi kriptografiya, tarmoq va tizim xavfsizligi, hamda raqamli forenzika sohalarida keng ko‘lamli ilmiy tadqiqotlar olib boradi. Kriptografiya, tarmoq va tizim xavfsizligi ilmiy yo‘nalishlarida bajarilgan ishlari jaxon miqyosida ahamiyatga molik xisoblanadi, shu bilan birga axborot xavfsigiga oid fundamental fanlarni o‘qitishda markazning metodist tadqiqotchilari tomonidan ishlab chiqilgan texnologiya va metodologiyalar asosida Koreya universiteti bakalavriat va magistratura boshqichi talabalariga o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etiladi. Xitoyning Tsinghua universitetida axborot xavfsizligi bilan shug‘illanuvchi institute, laboratoriya va markazlar ko‘plab mavjud, bu yerda talabalar Kiberxavfsizlik va unga turdosh fanlarni o‘rganishda institut tomonidan nazariy bilimlar beriladi, laboratoriyalarda nazariy bilimlar mustahkamlanib markazlarda talabalar buyurtmalar bilan ishlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Markazlarda, tashkilotlar va korxonalar, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan ham kiberxujum, shaxsiy elektron ma’lumotlarining o‘g‘irlanish va tahdidlar borasidagi murojaatlar yig‘ilgan bo‘lib, bu muammolarni talabalar erkin, ixtiyoriy va ijodiy yondashib, yechim uchun takliflar tayyorlash imkoniga ega, ularning aralashuvi bilan hal qilingan masalalar, talabalar baholanishini ham ta’minlaydi.

Post-kvant kriptografiyasi (PQC) — chuqur tadqiqot talab qiluvchi zamonaviy yo‘nalishlardan biridir. AI yordamida kiberhujumlarni oldindan aniqlash, botnetlarni aniqlash, soxta ma’lumotlar (deepfake) tahlilini avtomatlashtirish ustida ish olib borilmoqda. Bugungi kunning o‘rganilishi kutilayotgan sohalaridan. Bugun kunda asosiy ilmiy izlanishlari, yangi avlod mobil tarmoqlar (6G) xavfsizlik protokollarini yaratish, signalga hujumlarga qarshi chidamli tizimlar ishlab chiqish sohalariga qaratilmoqda, sabab o‘rnida 6G tarmoqlarida millisoniya tezlikda axborot uzatiladi, bu esa maxfiylik va avtentifikatsiya tizimlarining qayta ko‘rib chiqilishini talab qilinishi bilan izohlangan. Ayni paytda 5–10-sinflar bosqichidan boshlab axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik va kriptografiya sohalariga oid parol xavfsizligi, fishingdan himoyalanish, internetda xulq-odob normalari kabi kiberxavfsizlik savodxonligini shakllantirishga qaratilgan darslar ta’lim tizimiga joriy etilmoqda. Ushbu chora-tadbirlarning asosiy maqsadi — yosh avlodni raqamli tahdidlarga nisbatan xabardor, ongli va himoyalangan tarzda voyaga yetkazishdan iborat.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ta’limni axborotlashtirish muammolari, metodik tayyorlashning konseptual asoslarini ishlab chiqish borasida

U.SH.Begimqulov[3], T.T.Kalekeyeva[4], M.Quronov[5], M.X.Lutfillayev[6], Q.Olimov[7], D.J.Saidov[8], N.I.Tayloqov[9], F.Zakirova[10]lar; axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik bo‘yicha ko‘nikma, mexanizm hamda modellarini takomillashtirish T.F.Bekmuratov[11], S.K.G‘aniyev[12], O.G‘.Davlatov[13], O.U.Xalmuratov[14], B.X.Xodjayev[15], A.H.Muxitdinov[16], A.B.Radjiev[17], K.A.Tashayev[18], B.Tahirov[19], U.L.Yoziyeva[20]lar tomonidan tadqiq qilingan.

MDH davlatlaridan axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikka oid A.A.Altufeva[21], A.B.Babash, E.K.Baranova[22], E.V.Bondarevskaya[23], Y.V.Boradakiy[24], V.A.Krasilnikova[25], A.V.Lukatskiy[26], N.N.Moiseev[27]lar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ta’lim sohasi va turli soha tarmoqlarida kiberholatdan xabardorlik va kiber muhitni monitoring qilish, kiberxavfsizlikka oid yondashuvlar S.Alter[28], Ross J.

---

[3] Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti.ped.fan. dok...diss.-T..2007. -305 b.

[4] Kalekeeva T. T. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak informatika o’qituvchilarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish. Dis... dok (PhD). – T., 2018. – 135 b.

[5] Quronov M. Milliy xavfsizlik tizimida kiberxavfsizlikning o‘rni va uni ta’lim jarayonida integratsiyalash muammolari // Oliy ta’limda innovatsiyalar. – Toshkent: TDPU, 2021. – №4. – B. 120–128.

[6] Lutfillayev M.H. Oliy ta’lim jarayonini takomillashtirishda axborot texnologiyalarini integrasiyalash nazariyasi va amaliyoti. (Informatika va tabiiy fanlar misolida). ped.fan. dok...diss. Samarqand 2005 - 236 b.

[7] Олимов Қ. Проблема создания учебников специалных дисциплин нового поколения в сфере средного специального образования. Монография. – Т.: “Фан”, 2004. – 144 б.

[8] Saidov D.J., To‘rayeva O.X. Axborot tizimlari va ularning rivojlanishi omillari // Central Asian journal of multidisciplinary research and management studies. Volume 1, Issue 4, March 2024. 67-68-b.

[9] Tayloqov N.I., Rustamov N. Elektron o’quv adabiyotlarini yaratish-davr talabi // Ta’lim va tarbiya. – Toshkent, 2003. -1-2-son. – B. 23 – 25.

[10] 169. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических ВУЗах. Автореф. дис. ... док-ра. пед.наук. – Ташкент, 2009.

[11] Бекмуратов Т.Ф., 52. G‘aniyev S.K., Karimov M.M., Tashayev K.A. Axborot xavfsizligi. Oliy o‘quv yurt talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent -2016.Б. 125 – 126.

[12] G‘aniyev S.K., Karimov M.M., Tashayev K.A. Axborot xavfsizligi. Oliy o‘quv yurt talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent -2016.

[13] Davlatov O.G‘. Talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetenstligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish. Ped.fan.fals.dok…diss. Toshkent-2018. -21 b.

[14] Xalmuratov O.U.Axborot xavfsizligi ko‘rsatkich va mezonlari tizimini shakllantirish usullari va algoritmlari.Tex.fan.fals.dok.(PhD). …diss. Toshkent-2019. -163 b.

[15] Xodjayev B.X. Umumta’lim maktablari talabalarida tarixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didkatik ta’minot vositasida rivojlantirish. Ped.fan.dok….diss. –T., 2016. – 120-122 b.

[16] Muxitdinov A.H. Axborot xavfsizligini ta’minlashning iqtisodiy mexanizmi. iqt.fan.nomz…diss.Toshkent. 2012.-178 b.

[17] Radjiyev A.B. Xalq ta’limi tizimida rahbar xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni boshqarish samaradorligini oshirish (umumta’lim maktab direktorlari misolida): ped. fanl. bo‘y. fals. dokt. (PhD) diss. ... avt. –T.: 2020. – 61 b.

[18] G‘aniyev S.K., Karimov M.M., Tashayev K.A. Axborot xavfsizligi. Oliy o‘quv yurt talabalari uchun mo‘ljallangan o‘quv qo‘llanma. “Fan va texnologiya” nashriyoti, Toshkent -2016.

[19] Tahirov B.N. Axborot xavfsizligi asoslari [Matn] : o‘quv qo‘llanma / B.N. Tahirov - Buxoro: Fan va ta’lim, 2022.-156 b.

[20] Yozieva U.L. Ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning takomillashtirilgan texnologiyasi (boshlang’ich ta’lim misolida). Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Nukus, 2018. – 134 b.

[21] Алтуфьева А.А. Методические основы обучения информационной безопасности на базе телекоммуникационных ресурсов сети интернет. Дисс. на соиск. ученой степени канд. пед. наук. - Санкт-Петербург, 2008. – 132 с.

[22] Баранова Э.К. Бабаш А.Б. Информационная безапасност и зашита информации / - М.: ИНФРА-М -РИОР, 2014 г., 216 с.

[23] Бондаревская, Е.В. Гуманистическая парадигма личностно-ориентированного образования / Е.В.Бондаревская // Педагогика.1997. - №4.-С. 11-17.

[24] Бородакий.Ю.В. Кибербезопасность как основной фактор национальной и международной безопасности XXI века.

[25] Красильникова В.А. Использование информационных и коммуникационных технологий в образовании. Учебное пособие. Оренбургский гос. ун-т.– 2-е изд. – Оренбург: ОГУ, 2012. – 291 с.

[26] Лукацкий А.В.Краткий толковый словар по информационной безопасности. М.2000. с 72

[27] Моисеев Н.Н. Расставание с простотой. –М., 2000. -473 с

[28] Alter S. The Work System Method: Connecting People, Processes, and IT for Business Results. Works System Press, CA. 2006 y.

Anderson[29], Thomas A. Johanson, Yar Majid va Kevin F[30]. Steinmetz, Ujjwal Rao[31], Howard Schmidt[32], Bruce Schneier[33]lar tomonidan tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot rejasining "Psixologiya tarixini o'rganish, umumiy psixologiya mazmunini o'zlashtirish, shaxs psixologiyasini tasniflash, psixofiziologik tadqiqotlar ko'lamini kengaytirish, tibbiy va kasb psixologiyasi qonuniyatlarini o'rganish, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya hamda yosh davrlari va pedagogik psixologiyaning konseptual asoslarini tadqiq qilish" nomli ustuvor yo'nalish doirasida bajarilgan (2020-2024 yy.).

Tadqiqotning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarning intellektual kompetentligini rivojlantirishning dasturiy ta'minotini takomillashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

axborotlar xuruji davrida "Kiberxavfsizlik asoslari" fanini o'qitishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

axborotlar xuruji davrida "Kiberxavfsizlik asoslari" fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minoti mazmunini takomillashtirish;

"Kiberxavfsizlik asoslari" fanini o'qitish jarayonida talabalar kiberetika madaniyatini shakllantirish modelini takomillashtirish;

"Kiberxavfsizlik asoslari" fanini o'qitishning o'quv-metodik ta'minotini boyitishga asoslangan dasturiy-metodik ta'minotni joriy etish metodikasini takomillashtirish;

axborotlar xuruji davrida "Kiberxavfsizlik asoslari" fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirishga qaratilgan elektron platformani joriy etish samaradorligini aniqlashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida axborotlar xuruji davrida "Kiberxavfsizlik asoslari" fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish jarayoni bo'lib, tajriba-sinov ishlarida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand, Qarshi va Farg'ona filiallarining 1–4 bosqich talabalaridan 497 nafari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini axborotlar xuruji davrida "Kiberxavfsizlik asoslari" fanini o'qitishning dasturiy-metodik ta'minotini takomillashtirish, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, sotsiologik metodlar (anketa, savol-javob, suhbat, ekspert baholash) pedagogik tajriba-sinov, matematik-statistik tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat**:**

---

[29] Anderson R. Security Engineering: A Guide to Building Dependable Distributed Systems (2nd ed.). Indianapolis: Wiley. ISBN: 978-0-470-06852-5. 2008 y.

[30] Yar Majid and Kevin F. Steinmetz. Cybercrime and society. SAGE. 2019 y.

[31] Ujjwal Rao. Student, B. Tech, Department of Computer Science and Engineering Dronacharya College of Engineering, Gurgaon, Haryana, India

[32] Jan de Lange and William Schmidt. What are PISA and TIMSS? What do they tell us? https://www.researchgate.net/publication/41537659 What are PISA and TIMSS What do they tel us.

[33] Schneier B. Applied Cryptography: Protocols, Algorithms, and Source Code in *C* (2nd ed.). New York: John Wiley & Sons. ISBN: 978-0-471-11709-4.

axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishni takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari himoya qilish usullarining qonuniylikka mos ravishda kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan yagona yondashuv muhitini shakllantirish hamda kibertahdidlar sharoitida talabalarning kiberetika madaniyatini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi asosiy tamoyillarni tasniflash asosida aniqlashtirilgan;

axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minoti mazmuni xavfsizlik terminlarning semantik tuzilmasini ta’limiy maqsadlarga mosligini aniqlash, shifrlash-kodlash, kriptografik algoritmlar, tarmoq xavfsizligi va ma’lumotlarni saqlash bo‘yicha zamonaviy himoya usullarini kiritish hamda foydalanuvchi interfeysini identifikatsiya, autentifikatsiya va konfidensiallik jarayonlariga proporsional mosligini ta’minlash asosida takomillashtirilgan;

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish jarayonida talabalar kiberetika madaniyatini shakllantirish modeli axborot xavfsizligini ta’minlashning dolzarb muammolarini darajalash, axborot va kiberxavfsizlikning o‘ziga xos differensial xususiyatlarini kolloboratsiyalash hamda global muammolar yechimini tizimli-tuzulmaviy tahlil qilish va argumentlash, uzluksizlik, fanlararo aloqadorlik tamoyillarini informativ, kontekstli, integrativ, faoliyatli yondashuvlarga maqsadli uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirilgan;

axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotni joriy etish metodikasi interaktiv usullar, virtual makonda axborot tahdidlari va kiberhujum strategiyalariga tezkor javob berish imkonini beruvchi audiovizual axborot, blokcheyn, bulut texnologiyalar, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari imkoniyatlardan unumli foydalanish, o‘qish bilan bog‘liq derivativ, assotsiativ birliklarni raqamli ta’lim vositalariga moslashtirish hamda kiberetika madaniyatining rivojlanganligini asoslovchi komponentlarni ierarxik tizimlashtirish asosida takomillashtirilgan.

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish jarayonida talabalar kiberetika madaniyatini shakllantirish samaradorligi axborot xavfsizligini ta’minlash, dasturiy va texnik vositlardan maqsadli foydalanish, tarmoqlararo klassifikatsiyasini aniqlashtirish hamda axborot xurujining ta’lim jarayoniga ta’sir jihatlarini o‘rganish va talabalarda kibertahdidlarga qarshilik ko‘rsatishning o‘quv kognitiv, kommunikativ tafakkur qilish, integrativ-kreativ ko‘nikmalarni barqaror rivojlantirish darajalariga dinamik ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish modeli takomillashtirilgan;

bo‘lajak o‘qituvchilar uchun ilg‘or pedagogik va innovatsion metodlarni ta’lim jarayoniga joriy qilish bo‘yicha metodik-ta’minot nashr qilingan “Kiberxavfsizlik asoslari” darslik (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining № 11-05-7601/04 raqamli guvohnomasi), “EduCyberSecurity” onlayn o‘qitish platformasi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining № DGU 46759 raqamli guvohnomasi) va “Kiberxavfsizlik asoslari” mobil ilova (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining № DGU 46916 raqamli guvohnomasi) yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoga falsafiy, pedagogik va psixologik, metodik yondashish hamda texnologik yo‘nalishlar bo‘yicha respublikamiz va chet ellik olimlar tajribalariga asoslangani, tadqiqot vazifalariga mos, o‘zaro bir-birini to‘ldiradigan tadqiqot metodlari qo‘llangani, tahlil va tavsifning miqdor va sifat jihatdan ta’minlangani; tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani hamda xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati bo‘yicha kiberetika madaniyatini shakllantirishda amaliyotga yo‘nalganligi, stilistik differensiatsiya, ta’limning ijodiy yo‘nalganligi, fanlararo integratsiya va fan ichidagi integratsiya tamoyillari; kompetentlik, shaxsga yo‘naltirilgan, ijtimoiy-lingvistik, integrativ, ijtimoiy-madaniy, kommunikativ va tizimli yondashuvlari; ta’lim mazmuni komponentlari (lingvistik, ijtimoiy-lingvistik, ijtimoiy-madaniy, pragmatik) va elektron-didaktik vositalarni uzviy ta’minlashni innovatsion ta’lim sharoitida pedagogik muammolarning maqbul yechimlarini topish va natijaga erishish kabi to‘rt bosqichi aniqlashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati axborot xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha natija, taklif va tavsiyalar, shuningdek ishlab chiqilgan dasturiy va uslubiy materiallar o‘quv jarayoniga tadbiq qilinishi mumkinligidan iborat. Ulardan zamonaviy resurs va usullardan foydalangan holda o‘quv qo‘llanmalarini yaratish va yangilashda, shuningdek, talabalarning bilim, ko‘nikma va malaka darajasini baholash uchun monitoringni tashkil etishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishni takomillashtirishning pedagogik imkoniyatlari himoya qilish usullarining qonuniylikka mos ravishda kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan yagona yondashuv muhitini shakllantirish hamda kibertahdidlar sharoitida talabalarning kiberetika madaniyatini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi asosiy tamoyillarni tasniflash asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar “Kiberxavfsizlik asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrdagi 11-05-7601/04 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish mazmuni kengaytirilgan;

axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minoti mazmuni xavfsizlik terminlarning semantik tuzilmasini ta’limiy maqsadlarga mosligini aniqlash, shifrlash-kodlash, kriptografik algoritmlar, tarmoq xavfsizligi va ma’lumotlarni saqlash bo‘yicha zamonaviy himoya usullarini kiritish hamda foydalanuvchi interfeysini identifikatsiya, autentifikatsiya va konfidensiallik jarayonlariga proporsional mosligini ta’minlash asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Kiberxavfsizlik asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrdagi 11-05-7601/04 raqamli

nashr ruxsatnomasi). Natijada “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning o‘quv-metodik ta’minoti mazmuni kengaytirilgan;

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish jarayonida talabalar kiberetika madaniyatini shakllantirish modeli axborot xavfsizligini ta’minlashning dolzarb muammolarini darajalash, axborot va kiberxavfsizlikning o‘ziga xos differensial xususiyatlarini kolloboratsiyalash hamda global muammolar yechimini tizimli-tuzulmaviy tahlil qilish va argumentlash, uzluksizlik, fanlararo aloqadorlik tamoyillarini informativ, kontekstli, integrativ, faoliyatli yondashuvlarga maqsadli uyg‘unlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Kiberxavfsizlik asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrdagi 11-05-7601/04 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada talabalardan axborot xavfsizligini ta’minlash va kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarb muammolarini aniqlashga erishilgan;

axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotni joriy etish metodikasi interaktiv usullar, virtual makonda axborot tahdidlari va kiberhujum strategiyalariga tezkor javob berish imkonini beruvchi audiovizual axborot, blokcheyn, bulut texnologiyalar, nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari imkoniyatlardan unumli foydalanish, o‘qish bilan bog‘liq derivativ, assotsiativ birliklarni raqamli ta’lim vositalariga moslashtirish hamda kiberetika madaniyatining rivojlanganligini asoslovchi komponentlarni ierarxik tizimlashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Kiberxavfsizlik asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan. Natijada “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘zlashtirishning ijobiy natijalariga erishilgan.

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish jarayonida talabalar kiberetika madaniyatini shakllantirish samaradorligi axborot xavfsizligini ta’minlash, dasturiy va texnik vositlardan maqsadli foydalanish, tarmoqlararo klassifikatsiyasini aniqlashtirish hamda axborot xurujining ta’lim jarayoniga ta’sir jihatlarini o‘rganish va talabalarda kibertahdidlarga qarshilik ko‘rsatishning o‘quv kognitiv, kommunikativ tafakkur qilish, integrativ-kreativ ko‘nikmalarni barqaror rivojlantirish darajalariga dinamik ustuvorlik berish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Kiberxavfsizlik asoslari” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 28-dekabrdagi 11-05-7601/04 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada axborotlar xuruji davrida talabalarda kiberetika madaniyatini shakllantirishning aspektlari aniqlashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 26 ta ilmiy-uslubiy ish, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 1 ta monografiya, 11 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublikada va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 4 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 240 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ilmiy tadqiqot ishining dolzarbligi ilmiy asoslanib, muammoning o‘rganilganlik darajasi tavsiflangan. Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari, ob’yekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo‘nalishlariga mosligi asoslab berilgan. Shuningdek, tadqiqot ishining ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, erishilgan natijalarning amaliyotga joriy etilishi, natijalarning ilmiy ishlarda e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishni rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida axborot xavfsizlik va kiberxavfsizlikni rivojlantirishning ilmiy-metodologik asoslari, o‘ziga xos differensial xususiyatlari mohiyati, axborot xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning metodik ta’minoti tavsifi bayon qilingan.

Bugungi kunda har bir soha vakili – rahbarlar, xodimlar, o‘quvchilar, talabalar hamda barcha yoshlar uchun ijtimoiy tarmoqlar, kompyuter texnologiyalari bilan ishlash, ulardan axborot izlash va foydalanish odatiy holga aylangan. Shu sababli, axborot tizimlaridan samarali foydalanish, sohaga tegishli ma’lumotlarni izlash va ulardan foydali maqsadlar yo‘lida foydalanish muhim ahamiyatga ega. Buning natijasida insonning dunyoqarashi, badiiy tafakkuri, nutqiy qobiliyati va ilmiy-intellektual salohiyati rivojlanib, kundalik faoliyatning turli sohalarida axborotlashtirish jarayonining ahamiyati ortib boradi. Bu esa zamonaviy voqelikdan xabardor bo‘lish imkonini yaratadi. Umuman olganda, kasbiy va shaxsiy hayotda axborot bilan samarali ishlash mazkur sohaning rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, axborot izlash jarayonida uning ishonchliligi, foydaliligi va samaradorligi kabi jihatlarga e’tibor qaratish muhimdir. Shuningdek, aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ma’lumotlarning xavfsizligiga ham alohida e’tibor berish lozim.

Davlatimizning axborot xavfsizligini ta’minlash sohasida olib borayotgan siyosati bugungi kungacha davom etayotganligini amalda qabul qilinayotgan yangi qonun hujjatlari misolida ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”ning “Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglikni ta’minlash hamda chuqur o‘ylangan, o‘zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo‘nalishlar” deb nomlangan beshinchi ustuvor yo‘nalishida axborot xavfsizligini ta’minlash va axborotni himoya qilish tizimini takomillashtirish, axborot sohasidagi tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib qarshilik ko‘rsatish masalasi alohida yo‘nalish sifatida belgilanib, bunda talabalar ongiga tahdid soluvchi axborot xurujlarining oldini olish, talabalardan internet va boshqa axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirishga qaratilgan seminar treninglar tashkil qilishga alohida e’tibor qaratilgan.

Shu o‘rinda yurtimizda olimlarimizdan B.Xodjayev, M.Qurbonovlar o‘zining tadqiqotida axborot xurujlari, axborot xurujidan saqlanish texnologiyalari, O.G‘.Davlatov “Talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish” mavzusidagi tadqiqotida: “Axborot xuruji

yoki tahdidi – bu axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlariga xavf tug‘diruvchi sharoit va omillar yig‘indisidir”, deya ta’kidlaydi. Bunda axborot va uning xavfsizligini ta’minlashda, u bo‘yicha choralar majmuini ishlab chiqish zarur deb o‘ylaymiz.

Modomiki, axborot xuruji kuzatilayotgan ekan, axborot xavfsizligini ta’minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. S.K.G‘aniyev, M.M.Karimov, K.A.Tashayevlarning fikricha, “Axborot xavfsizligi – axborotning nomaqbul (axborot munosabatlarining tegishli subyektlari uchun) oshkor qilinishidan (konfidensialligining buzilishidan), yaxlitligining buzilishidan, sirqib chiqishidan, yo‘qotilishidan, modifikatsiyalanishidan yoki foydalanuvchanlik darajasining pasayishidan hamda noqonuniy tirajlanishidan himoyalanganligi bilan xarakterlanadi. Ushbu hodisalarning sababchisi tasodifiy ta’sirlar yoki buzg‘unchining (niyati buzuqning) atayin ruxsatsiz foydalanishi natijasidagi ta’sirlar bo‘lishi mumkin. A.H.Muxitdinovning ta’kidlashicha, ”Axborot xavfsizligi o‘zida shunday axborot tizimi holatini ifoda etadiki, bunda u tizim elementlari va tashqi muhit uchun ichki va tashqi tahdidlar paydo bo‘lishiga yo‘l qo‘ymay, ularning ta’siriga tura oladi”. A.Lukatskiyning e’tiroficha, “Axborot xavfsizligi muammosi ko‘rib chiqilar ekan, axborot xavfsizligiga tahdidlar kabi muhim jihatlarga batafsil to‘xtalish lozim. Negaki, aynan ular axborot xavfsizligini buzish manbai hisoblanadi. Axborot xavfsizligiga tahdid axborotning maxfiyligiga putur yetishiga, shuningdek, noqonuniy tarqalishiga olib kelish ehtimoli yuqori bo‘lgan xatti-harakatlar, jarayon va hodisalar sifatida belgiladi.

Yuqoridagi tahlillarga tayanib, axborot xavfsizligi – bu ma’lumotlarga ruxsatsiz kirish, ulardan foydalanish, oshkor qilish, buzish, o‘zgartirish, tadqiq qilish, yozib olish yoki yo‘q qilishning oldini olishga qaratilgan amaliyotdir. Ushbu umumiy tushuncha ma’lumotlarning har qanday shaklda – elektron yoki jismoniy holda bo‘lishidan qat’i nazar amal qiladi.

U.G‘ofurovning ta’kidlashicha, “axborot iste’moli madaniyati, eng umumiy ma’noda axborot oqimidan inson manfaatlari, kamoloti hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni qabul qilish, saralash, tushunish va talqin etishga xizmat qiladigan bilim, qobiliyat va malakalar tizmini anglatadi. Axborotni himoya qilish – bu: axborotning fizik butunligini ta’minlash, ya’ni axborot elementlarini xalaqitlarga uchrashi va yo‘qolishiga yo‘l qo‘ymaslik; axborot butunligini saqlashda uning elementlarini almashtirishga (modifikatsiyaga) yo‘l qo‘ymaslik; mos vakolatlarga ega bo‘lmagan shaxslar yoki jarayonlar tomonidan axborotni ruxsat etilmagan holda olinishiga yo‘l qo‘ymaslik; egalariga uzatilayotgan resurslar faqatgina tomonlar kelishgan shartlarga mos ravishda ishlatilishiga ishonch hosil qilinishi kerak, demakdir.

Hind olimi Ujjwal Raoning fikricha, kiberxavfsizlik – bu kibermuhit va tashkilot va foydalanuvchi aktivlarini himoya qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan vositalar, siyosatlar, xavfsizlik tushunchalari, xavfsizlik choralari, ko‘rsatmalar, xatarlarni boshqarish yondashuvlari, harakatlar, treninglar, eng yaxshi amaliyotlar, ishonch va texnologiyalar to‘plami. Tashkilot va foydalanuvchi aktivlariga ulangan hisoblash moslamalari, xodimlar, infratuzilma, dasturlar, xizmatlar, telekommunikatsiya tizimlari va kiber muhitda uzatiladigan yoki saqlanadigan ma’lumotlarning yig‘indisi

kiradi”. Hozirgi kundagi kiberxavfsizlik muammosi soha mutaxassislari tomonidan ilmiy-nazariy o‘rganish va o‘quv dasturiy-metodik ta’minot yaratish bo‘yicha muayyan darajadagi ishlar amalga oshirilgan. Kiberxavfsizlik, kibermuhofaza va unda himoya tizimini rivojlantirish metodikasi asosiy muammo sifatida qaralmoqda. Kibervaziyatdan xabardorlik va kibermuhitni monitoring qilish masalalari bilan M. Ekxart, U.Frank, J.S. Okolica va boshqalar bu masala yechimiga oid muammolar doirasida izlanishlar olib borilganliklari yoritilgan.

Yuqorida olimlar keltirgan fikrlardan kelib chiqqan holda, “Kiberxavfsizlik – bu barqaror, ishonchli va samarali tizim orqali ma’lumotlarni himoya qilish, nazorat qilish va oldini olish jarayonidir” degan mualliflik ta’rifi yaratdik.

Shuningdek, ushbu bobda axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlikning o‘ziga xos xususiyatlari va differensial jihatlari, ayrim xalqaro standartlar (ISO/IEC 27001, NIST Cybersecurity Framework), kiberxavfsizlik lug‘aviy semantikasi (tasodifiy hamda maqsadli tahdidlar), axborot xavfsizligini ta’minlash muammosining dolzarbligi, axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik o‘rtasidagi asosiy farqlar, ularning ilmiy asoslari va funksional chegaralari tahlili, eng muhim bo‘lgan tushuncha (axborotning yaxlitligi, identifikatsiya, autentifikatsiya, avtorizatsiya, foydalanishni nazoratlash, mulklik huquqi)larning ilmiy ta’riflari keltirilib izohlangan.

Ushbu jarayonlar axborot xavfsizligi boshqaruvi tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ma’lumotlarni himoya qilishda fundamental ahamiyat kasb etadi.

Kiberxavfsizlikni fundamental atamalarini aniqlashga turli yondashuvlar mavjud. Xususan, ba’zi mutaxassislar kiberxavfsizlikka oid atamalarga quyidagicha ta’rif berishgan:

“Konfidentsiallik jarayoni – axborot yoki uni eltuvchining shunday holati bo‘lib, undan ruxsatsiz tanishishning yoki nusxalashning oldi olinadi. Konfidensiallik jarayoni axborotni ruxsatsiz “o‘qish”dan himoyalash bilan shug‘ullanadi. Ayniqsa, bank sistemasida bank uchun konfidensiallik jarayoni juda muhim.

Risk – potensial foyda yoki zarar bo‘lib, umumiy holda har qanday vaziyatga biror bir hodisani yuzaga kelish ehtimoli qo‘shilganida risk paydo bo‘ladi. ISO risk – bu noaniqlikning maqsadlarga ta’siri sifatida ta’rif bergan. Axborot riski – bu korxonalarda axborot texnologiyalarini qo‘llash natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zarar yoki shikast yetishining ehtimollik darajasi. Shunday qilib, axborot risklari elektron tushunchalar va boshqa aloqa vositalari yordamida har qanday axborotni uzatish, saqlash, undan foydalanish bilan bog‘liq.

Axborot xavfsizligi - axborotning holati bo‘lib, unga binoan axborotga tasodifan yoki atayin ruxsatsiz ta’sir etishga yoki ruxsatsiz undan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Yoki, axborotni texnik vositalar yordamida qayta ishlash jarayonida uning maxfiylik (konfidensiallik), yaxlitlik va foydalaniluvchanlik kabi xarakteristikalarini (xususiyatlarini) saqlanishini ta’minlovchi axborotning himoyalanlik holati. Kiberxavfsizlik sakkizta bilim sohasiga bo‘lingan: ma’lumotlar xavfsizligi; dasturiy ta’minot xavfsizligi; tashkil etuvchilar xavfsizligi; aloqa xavfsizligi; tizim xavfsizligi; inson xavfsizligi; tashkilot xavfsizligi; ijtimoiy xavfsizlik”.

Kiberxavfsizlik sohasini takomillashtirishda dasturiy-ta’minot yaratish mazkur fanning terminlarini, glossariy tuzish va mustaqil taqdimot yaratish vazifasi berilishi natijasiga yo‘naltiradi.



1-rasm. Kiberxavfsizlik fanini o‘qitishda terminlarning semantik tuzilmasi

S.K.G‘aniev, A.A.G‘aniev, Z.T.Xudoyqulov ”Kiberxavfsizlik asoslari” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi nashr qilingan. O‘quv qo‘llanmada kiberxavfsizlik va uning asosiy tushunchalari, axborotning kriptografik himoyasi, foydalanishni nazoratlash, tarmoq xavfsizligi, foydalanuvchanlikni ta’minlash usullari, dasturiy vositalar xavfsizligi, axborot xavfsizligi siyosati va xavf-xatarlarni boshqarish, kiberjinoyatchilik, kiberhuquq, kiberetika hamda inson xavfsizligini nazariy va amaliy asoslarini qo‘llanilishi ifoda qilingan.

Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik fanini o‘qitishda yana bir o‘quv obyekti bu B.Tahirov tomonidan tuzilgan “Axborot xavfsizligi asoslari” o‘quv qo‘llanmasidir. Mazkur o‘quv qo‘llanmada axborot tizimlari xavfsizligi fanining mazmuni, axborot xavfsizligining predmeti, audit mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy tushunchalari, tahdidlar, himoya usullari, kiberxavfsizlik va kiberhujumlardan himoyalanish bosqichlari, shularga tegishli tushunchalar tahlili va atamalar izohi, axborot xavfsizligini ta’minlashning asosiy dasturiy va texnik vositalari yuzasidan mavzular va nazariy ma’lumot, soha mutaxassislarining ilmiy qarashlari, tahliliy yondashuvlar, va tadqiqiy xulosalar yoritilgan. Qo‘llanmadagi I bobga tegishli axborotni xavfsizligi, kiberjinoyatchilik va axborotga tahdidlar mavzusida axborot xavfsizligi, maxfiy axborot, hujjatlashtirilgan axborot, konfidensial axborot kabi lug‘aviy birliklar izohlari ifoda qilingan. Axborotni muhofaza qilish – axborot xavfsizligining (ma’lumotlarning butunligi, foydalana olish va zarur bo‘lganda, ma’lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash va uzatishda foydalaniluvchi axborot va uning zahiralari konfedensialligi) muhim jihatlarini ta’minlashga yo‘naltirilgan tadbirlar majmuidir. Xavfsiz tizimda tegishli apparat va

dasturiy vositalardan foydalanib, axborotni o‘qish, yozish, hosil qilish va o‘chirish huquqiga ega shaxslar yoki ular nomidan amalga oshiradigan jarayonlar orqali axborotdan foydalana olish boshqariladi. Shuningdek, Axborot himoyasi konsepsiyasini ishlab chiqish bosqichlari tavsifi o‘rin egallagan.

1- bosqich. Himoyalanuvchi obyekt qiymatini aniqlash;

2- bosqich. Buzg‘unchining bo‘lishi mumkin bo‘lgan harakatlarini tahlil qilish;

3-bosqich. Axborotni himoyalash vositalarini baholash.

Axborotni himoyalash konsepsiyasi himoyalanish obyekti bo‘lishi va unda kerakli, zaruriy o‘quv materiali joylashtirilgan bo‘lishi ayni muddaodir. Shu nuqtayi nazardan obyekt yonida axborotni himoyalash vositalari va ularning mexanizmini baholash muhim tajribalardan biri.

Shunday qilib, “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish jarayonini kompleks tarzda takomillashtirish, uning metodik ta’minotini innovatsion texnologiyalar va xalqaro standartlar asosida ishlab chiqish hamda xavfsizlik siyosati, huquqiy asoslar va amaliy qo‘llash usullari bilan boyitish raqamli infratuzilmaning himoyalanganligi va barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

Dissertatsiya ishining **“Axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishning konseptual mazmuni”** deb nomlangan ikkinchi bobida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishda tushunchalar tahlilining semantikasi, dasturiy-ta’minotini rivojlantirishda axborot tizimining xususiyatlari, fanni o‘qitishda kasbiy rivojlanishning o‘ziga xosligi ko‘rib chiqilgan.

Ta’lim sohasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shuvchi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi yanada takomillashtirilishini ta’minlash, mamlakatga kasbiy malakaga ega kadrlar tayyorlash, o‘quv mashg‘ulotiga innovatsion metodlar va ilg‘or texnologiyalarni tatbiq qilish asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bunda axborotlar bilan ishlash va ulardan foydalanish, kiberxavfsizlik talablarini o‘rgatish asosiy o‘rin egallaydi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasining 2022-yil 15-aprelda “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘RQ-764-son Qonuni qabul qilingan. Ushbu Qonunda kiberxavfsizlikni ta’minlashning asosiy prinsiplari belgilangan bo‘lib, ular quyidagilar: qonuniylik; kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishning ustuvorligi; kiberxavfsizlik sohasini tartibga solishga nisbatan yagona yondashuv; kiberxavfsizlik tizimini yaratishda mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishtirokining ustuvorligi; O‘zbekiston Respublikasining kiberxavfsizlikni ta’minlashda xalqaro hamkorlik uchun ochiqligi yuzasidan qator vazifalar belgilab berilgan.

Ma’lumki, innovatsion rivojlanish davrida zamonaviy yangi texnologiyalar, elektron xizmatlar bizning kundalik hayotiy faoliyatimizning ajralmas qismiga aylanganining guvohi bo‘lmoqdamiz. Ta’lim tizimi va o‘quv jarayonida yuqori tezlik bilan axborot kommunikatsiya va informatsion yondashuvlarni me’yoriy amal qilish va ularni himoya qilish hamda ulardan foydalanish, samara beruvchi maqsadlarga yo‘naltirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, dolzarb masalaga aylanmoqda. Xususan, bu borada har bir tashkilot, korxona, muassasa uchun kiberxavfsizlikni ta’minlash maqsadida mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi xodimlar jalb qilinmoqda hamda xodimlarni kiberxavfsizlikka oid bilimlar bilan doimiy tanishtirib borish uchun qator

seminar trening mashg‘ulotlari tashkil etilmoqda. Shuni ham aytib o‘tish joizki, oliy ta’lim muassasalarida ham kiberxavfsizlikni fan sifatida o‘qitilishi, bu fanning o‘rganilish maqsad va vazifalari belgilab berilgan. Axborot xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2021 yil 17 fevraldagi PQ-4996-son qarorida qator vazifalar belgilab berilgan. Bir qator ilg‘or davlatlarning sun’iy intellekt sohasidagi milliy strategiyalarini tahlil qilish mamlakatimiz uchun ustuvor yo‘nalish sifatida quyidagi beshta yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish imkonini beradi: sun’iy intellekt sohasida fundamental amaliy tadqiqotlar o‘tkazish - matematik usullardan foydalangan holda yangi sun’iy intellekt algoritmlarini yaratish; sun’iy intellekt injiniringini rivojlantirish - fundamental amaliy tadqiqotlar natijasida olingan algoritmlarni turli amaliy muammolarni hal qilishda qo‘llash, yangi dasturiy ta’minot va texnologik yechimlarni ishlab chiqish; ma’lumotlar – ularni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va optimallashtirish (algoritmlarni o‘rgatish uchun); kadrlar tayyorlash – sun’iy intellekt sohasida yuqori malakali ilmiy kadrlar va mutaxassislarni tayyorlash, yangi ta’lim dasturlarini yaratish; qonunchilik bazasi – sun’iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlovchi qonunlar, standartlar va axloqiy qoidalarni ishlab chiqish va amalga oshirish.

Kiberxavfsizlik siyosati kiberxavfsizlik maqsadlariga erishish strategiyasini ifodalaydi va uning tarkibiy qismlariga kiberxavfsizlik choralaridan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha ko‘rsatmalar beradi. Yo‘nalish ijtimoiy kelishuv yoki boshqaruv organi tomonidan belgilanishi mumkin. Biz, shuningdek, mustaqil korxonalar kiberxavfsizlik strategiyasini qo‘llab-quvvatlash uchun boshqaruv ko‘rsatmalarini o‘rnatishi kerakligini tan olamiz va biz o‘zgartirilgan “korxona siyosati” atamasidan faqat ma’lum bir korxona hamjamiyatida amal qiladigan siyosatlarga ishora qilish uchun foydalanamiz. Odatda bunday korporativ siyosat ko‘pincha Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (ISO) (ISO/IEC 2005 a,b) va NIST (Ross, Katzke va boshq. 2007) tomonidan o‘rnatilgan kiberxavfsizlik standartlariga asoslanadi. Bunday standartlar odatda texnologik nazorat bo‘yicha tavsiyalar bilan texnologik yo‘riqnomaning kombinatsiyasini o‘z ichiga oladi kabi jihatlar to‘xtalgan.

Kiberxavfsizlik ta’limining samaradorligi nafaqat texnologik bilimlarga asoslangan, balki asosiy tushunchalar tahlilining semantik jihatdan to‘g‘ri va izchil yoritilishi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Semantika – bu tushunchalarning mazmunini, ularning kontekstual ishlatilishini va turli fanlar hamda texnologiyalar bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Kiberxavfsizlik doirasidagi terminlar xalqaro axborot xavfsizligi standartlari, huquqiy meyorlar, texnik regulativ hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar bilan uyg‘un holda tahlil qilinishi kerak.

Mazkur fan bo‘yicha ta’lim jarayonida semantik tahlil quyidagi asosiy tamoyillarni qamrab olishi lozim:

Tizimlilik – kiberxavfsizlik tushunchalarining turli kontekstlarda qo‘llanilishi va ularning axborot texnologiyalari ekotizimidagi o‘rnini aniqlash.

Terminologik izchillik – kiberxavfsizlik bilan bog‘liq atamalarni xalqaro miqyosda qabul qilingan standartlarga moslashtirish va ularni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish.

Strukturaviy yondashuv – kiberxavfsizlik konseptlarini kriptografiya, autentifikatsiya jarayoni, tarmoq xavfsizligi, kiberjinoyatchilik va huquqiy aspektlarni turli yo‘nalishlarga ajratib o‘rganish.

Nazariy jihatdan, kiberxavfsizlik tushunchalarining semantik tahlili fan va texnologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunishga, shuningdek, talabalar va mutaxassislar uchun terminlarning aniq va tushunarli bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Kiberxavfsizlik bo‘yicha tushunchalarni semantik jihatdan chuqur anglash ularni amaliyotga tatbiq etishda ham muhim ahamiyatga ega. Amaliy ta’lim jarayonida quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

Interaktiv o‘qitish usullari – talabalarga kiberxavfsizlikning asosiy tushunchalarini virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va real kiberhujumlar tahlili orqali tushuntirish.

Case-study va real voqealar tahlili – amaliyotda yuz bergan kiberhujum holatlarini chuqur o‘rganish va ular bilan bog‘liq terminlarning semantik tahlilini olib borish.

Kompyuter xavfsizligi protokollarini modellashtirish – kriptografiya, autentifikatsiya va avtorizatsiya kabi jarayonlarning dasturiy ta’minot doirasida qanday ishlashini vizualizatsiya qilish.

Xalqaro standartlarga asoslangan terminologiya tizimi – ISO/IEC 27001, NIST Cybersecurity Framework, GDPR, OWASP kabi xalqaro axborot xavfsizligi standartlariga mos keladigan tushunchalarni milliy ta’lim tizimiga integratsiya qilish.

Amaliy jihatdan yondashilsa, kiberxavfsizlik tushunchalarini semantik jihatdan to‘g‘ri tahlil qilish orqali foydalanuvchilarning xavfsizlik xulq-atvori, axborotni muhofaza qilish bo‘yicha malaka va ko‘nikmalari oshiriladi. Ayniqsa, zamonaviy sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlariga asoslangan tahdidlarni aniqlash va oldini olish usullarida to‘g‘ri terminologiya va tushuncha tahlili muhim rol o‘ynaydi.

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanining samarali o‘qitilishi va tushunchalar tahlili uchun semantik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Semantik tahlil tushunchalarning mazmunini, ularning texnologik, huquqiy va strategik kontekstlarda qo‘llanilishini tahlil qilishga yordam beradi. “Kiberxavfsizlik asosi” fanida ishlatiladigan kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, kriptografiya, tarmoq xavfsizligi, kiberjinoyatchilik, kibertahdidlar, kiberhujumlar, identifikatsiya va autentifikatsiya jarayoni, vakolat berish, foydalanishni nazorat qilish, axborot xavfsizligi siyosati, kiberetika, kiberhuquq, kiberhimoya vositalari. xavf-xatarlarni boshqarish, xavfsizlik tahlili va auditi, axborot aktivlarini himoya qilish. sun’iy intellekt va kiberxavfsizlik kabi asosiy tushunchalar mazmuniga e’tibor qaratildi.

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishda semantik tahlil o‘quv jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Tushunchalarni to‘g‘ri va izchil o‘rganish, ularni xalqaro va milliy standartlarga mos ravishda talqin qilish orqali talabalarning axborot xavfsizligi bo‘yicha fundamental bilim va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, amaliy mashg‘ulotlar, simulyatsiyalar va tahliliy tadqiqotlar orqali bu tushunchalarni mustahkamlash kiberxavfsizlik fanlarining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Yuqoridagi keltirilgan ta’rifga ko‘ra, axborot tizimlarining kiberxavfsizlik nuqtayi nazaridan asosiy xususiyatlarga (tuzilmaviy murakkablik, ko‘p darajali xavfsizlik modeli, axborotga kirish va vakolatni boshqarish, axborotning yaxlitligi va konfidensialligi, tarmoq xavfsizligi va trafik monitoring, xavfsizlikni auditi va tahdidlarni monitoring qilish) ajratildi.

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanining dasturiy-ta’minotini rivojlantirishda axborot tizimining o‘rni salmoqli. “Axborot tizimi(AT) — axborotni saqlash, qidirish va qayta ishlash uchun mo‘ljallangan, axborotni ta’minlovchi va tarqatuvchi hamda tegishli tashkiliy resurslar (inson, texnik, moliyaviy va boshqalar) tizimidir”. Kompyuter axborot tizimi esa— axborotni qayta ishlovchi yoki sharhlovchi odamlar va kompyuterlardan tashkil topgan tizim hisoblanadi.

Zamonaviy kompyuter tizimlari va ularning tarmoqlaridan foydalanish axborotni ko‘rib chiqish, ma’lum matnlarni nusxalash, maxsus dasturiy va apparat resurslari bilan ishlash, turli xil xabarlarni qabul qilish kabi talablarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik soha bo‘yicha ta’lim berish jarayonini takomillashtirish, xususan, dasturiy-metodik ta’minotni rivojlantirish muhim omillardan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida axborot xurujlari davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun internet resurslaridan foydalangan holda kasbiy rivojlanish metodlarini ilgari surish, bu jarayonda interaktiv yondashuvni tatbiq etish va ilmiylik hamda ko‘rsatmalilik tamoyillariga ustuvorlik berish asosiy maqsad sifatida belgilandi.

Bizning fikrimizcha, axborot xurujlari muhitida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini rivojlantirishda yuqori natijaviylikka erishish uchun axborotni uzatish va yig‘ishning zamonaviy usullarini yaratish, elektron axborot xavfsizligi bo‘yicha intellektual va ijodiy salohiyatni rivojlantirish, pedagogik mahorat va texnologik vositalardan samarali foydalanish kabi yo‘nalishlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mustaqil kasbiy tafakkurni shakllantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatini beruvchi akmetexnologiyalarni ishlab chiqish ham ushbu jarayonning ajralmas qismi hisoblanadi.

Ushbu bobda Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini rivojlantirishda muhim yondashuvlar (kompetensiyaviy yondashuv nazariyasi, konstruktivistik o‘qitish nazariyasi, tajriba asosida o‘qitish nazariyasi, bloom taksonomiyasi va kiberxavfsizlik ta’limi, o‘zaro ta’sirli o‘qitish nazariyasi)ga to‘xtalgan. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar asosan, kasbiy rivojlanishning o‘ziga xosligini amaliyot bilan uyg‘unlashgan holda kompetensiyaviy, konstruktivistik o‘qitish, tajriba asosida o‘qitish, Bloom taksonomiyasiga asoslangan bosqichma-bosqich o‘qitish, interaktiv o‘qitish kabi yondashuvlar asosida tashkil etish maqsadga muvofiqligi o‘rganilib chiqilgan. Shu sababli, kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassis tayyorlashda an’anaviy ta’lim usullari bilan bir qatorda, interaktiv va amaliy yondashuvlar qo‘llanilishi muhimdir. Ushbu ilmiy nazariyalarning integratsiyalashuvi zamonaviy kibermuhit talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash imkonini beradi.

Shuningdek, kiberxavfsizlik asoslari fanini o‘qitishda shaxsiy va kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish komponentlari mantiqiy faoliyat sxemasiga ketma-ketlikda mos keladi: ichki motivatsiyani shakllantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayonini

loyihalash; individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasiga muvofiq harakatlarni bajarish; shaxsiy va kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirish jarayoni natijalariga asoslangan aks ettirish va tuzatuvchi harakatlarni amalga oshirishdan iboratligi bayon qilingan.

Dissertatsiya ishining **“Axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish modeli, didaktik tamoyillar ishlab chiqilgan texnologiya va rivojlantirishning innovatsion metodlari ifoda qilingan.

O‘quv jarayonida pedagogik, metodik, psixologik, texnik, tashkiliy imkoniyatlarni o‘rganish obyekti zamonaviy texnologiyalar ta’lim muhitini tubdan o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq.

Olib borilgan ilmiy tadqiqot va tahliliy kuzatuvlar natijalariga ko‘ra, axborot xurujlari sharoitida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish jarayonida dasturiy-metodik ta’minotni takomillashtirish quyidagi tarkibiy elementlarga tayanuvchi uzviy tizimni shakllantirishni taqozo etadi: o‘quv-metodik tamoyillar, o‘qitish prinsiplari, baholash mezonlari, ta’limiy tendensiyalar hamda rivojlantirish modellari. Bu komponentlar kiberxavfsizlik ta’limi mazmunini shakllantirish, o‘qitish sifatini oshirish va o‘quv jarayonining samaradorligini ta’minlashga xizmat qiluvchi asosiy vositalar sifatida qaraladi. Shu tariqa, mazkur fan doirasida ilg‘or ta’limiy yondashuvlar va texnologiyalarni joriy etish orqali o‘qitishning zamonaviy metodologik bazasini yaratish imkoniyati yuzaga keladi

Talabalarda axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishda kiberxavfsizlik terminlarining konseptual asoslarini va ularning amaliy tatbig‘i va kompyuter ma’lumotlaridan foydalanishda shaxsiy-kasbiy, kreativ-mantiqiy, individual kasbiy rivojlanish, psixologik o‘sish qobiliyatlari o‘qitishning bosh maqsadi sanaladi.

Talaba yoshlarda axborot etikasiga asoslangan, jamiyat, inson uchun foydali, axborot bilan ishlashda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini inobatga olish, intellektual mulk obyektlariga tahdid qilmaslik, milliy ma’naviy merosni saqlash, ma’naviy-insoniy an’analarni rivojlantirish, axloq-odob meyorlarini targ‘ib qilish, huquqiy aksiologik bilimlarni o‘stirish singdirilishi dolzarb mazmun kasb etadi. O‘quv-metodik ta’minot yaratishda zamonaviy informatsion texnologiyalarini taraqqiy etishini izohlash, fanga doir ustuvor tamoyillar, prinsiplar ilmiylik potensialini rivojlantirish muhitini yaratish va bu jihat biz tomonimizdan yaratilgan modelda ifodalangan.

Axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish modeli to‘rt blokni o‘z ichiga oladi. Bular: kognitiv-grammatik yondashuvlarga qaratilgan blok, kontekstli-informativ aspektlarga oid blok, metodologik ta’minotini rivojlantiruvchi blok, baholash mezonlari bloki kabi komponentlardan iborat. Modelning kriptografik-kognitiv aspektlarga qaratilgan blokda ishlov berilayotgan va uzatilayotgan axborotlarga noqonuniy kirishni oldini oluvchi shifrlash va kodlashni tatbiq etish bo‘yicha o‘quv predmeti mazmuni, vazifalar, tamoyillarni qamrab oladi.

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish jarayonida talabalar kiberetika madaniyatini shakllantirish modeli axborot xavfsizligini ta’minlashning dolzarb muammolarini darajalash, axborot va kiberxavfsizlikning o‘ziga xos differensial



2-rasm. Axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish modeli

xususiyatlarini kolloboratsiyalash hamda global muammolar yechimini tizimli-tuzulmaviy tahlil qalish va argumentlash, uzluksizlik, fanlararo aloqadorlik tamoyillarini informativ, kontekstli, integrativ, faoliyatli yondashuvlarga maqsadli uygunlashtirish asosida takomillashtirilgan bo‘lib, unda talaba yoshlarning axborot etikasiga asoslangan bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, jamiyat va inson manfaatlariga mos ravishda axborot bilan ishlash tamoyillarini o‘zlashtirish, shuningdek, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini inobatga olish, intellektual mulk obyektlariga zarar yetkazmaslik kabi masalalar bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, milliy ma’naviy merosni saqlash, insoniy qadriyatlar va an’analarni rivojlantirish, axloqiy-meyorlarni targ‘ib qilish hamda huquqiy va aksiologik bilimlarni oshirish talabalar uchun muhim yo‘nalishlardan biridir.

Zamonaviy informatsion texnologiyalar taraqqiyoti axborot xavfsizligini ta’minlash bilan bog‘liq muammolarni yanada chuqur o‘rganishni talab qiladi. Shu sababli, fan doirasida ilmiy tamoyillar va ustuvor prinsiplarni rivojlantirish, metodik ta’minotni modernizatsiya qilish hamda innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish dolzarb hisoblanadi. Ushbu jihatlar biz tomonidan ishlab chiqilgan modelda aks ettirilgan.

Axborot xurujlari tahdidi ortib borayotgan sharoitda “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish uchun ishlab chiqilgan model to‘rtta asosiy blokni o‘z ichiga oladi:

Kriptografik-kognitiv aspektlarga qaratilgan bloki – axborot xavfsizligining asosiy tushunchalari, nazariy tamoyillari va huquqiy asoslarini shakllantirish bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil etadi.

Konfedensiallik, riskni boshqarishga oid bloki – kiberxavfsizlik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlar, real muammolar va masalalarni tahlil qilish hamda talabalarning axborot xavfsizligiga oid bilimlarini kengaytirish vazifalarini qamrab oladi.

Metodologik ta’minotni rivojlantiruvchi bloki – o‘qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo‘llash, o‘quv jarayonining interaktiv usullari, tajriba asosida o‘qitish va mustaqil ta’lim traektoriyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan metodikalar asosida tashkil etiladi.

Baholash mezonlari bloki – talabalar kiberxavfsizlik bo‘yicha bilim va amaliy ko‘nikmalarini aniqlash, ularning refleksiv fikrlash qobiliyatini baholash va ularning kasbiy rivojlanishini kuzatib borish tizimini o‘z ichiga oladi.

Modelning kriptografik-kognitiv aspektlarga qaratilgan blokida axborotlarni himoya qilish texnologiyalariga alohida e’tibor qaratilgan.

Ushbu blokda o‘quv pedagogik jarayonda “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishda o‘quv predmetini obyekti ta’limiy topshiriqlar mohiyatini ifodalash, axborotga ruxsatsiz kirishning oldini olish uchun shifrlash va kodlash metodlarini qo‘llash, o‘quv jarayonida kriptografik algoritmlar va autentifikatsiya jarayonlarini o‘rgatish, tarmoq xavfsizligi va ma’lumotlarni saqlash bo‘yicha zamonaviy himoya usullarini tatbiq etish masalalari va boshqalar singdirib o‘tilgan.

Shu bilan birga, axborot xavfsizligiga oid asosiy tamoyillar, yondashuvlar, o‘quv fanining mazmuni va asosiy vazifalari mazkur model doirasida keng qamrovli tarzda yoritilgan. Ushbu metodologik yondashuv talabalarning axborot bilan ishlash

madaniyatini oshirish, intellektual mulkni himoya qilish tamoyillarini o‘zlashtirish va kiberxavfsizlik bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro va mahalliy ilmiy tadqiqotlar hamda me’yoriy hujjatlar tahlili natijalarini umumlashtirish orqali axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishda talabalarning axborotlardan ijobiy maqsadga yo‘naltirib foydalanish va ularning mustaqil va uzluksiz shaxsiy- metodik rivojlanishi yuqori darajada samarali amaliyotga joriy etish uchun quyidagi didaktik tamoyillar ishlab chiqildi.

“Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish va uning metodik-dasturiy ta’minotini rivojlantirish bir qator fundamental tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar ilmiylik, ko‘rgazmalik, argumentlash, uzluksizlik, asoslilik, fanlararo aloqadorlik, axborotni himoyalash, kiberetika va qadriyatli yondashuvlarini o‘z ichiga oladi.

Argumentlash tamoyili. Ushbu tamoyil asosida talabalar o‘quv jarayonida o‘rganilgan bilimlarni asoslash, dalillar bilan mustahkamlash, mantiqiy izchillikda fikr yuritish va nuqtayi nazarni asosli tarzda himoya qilishni o‘rganadilar. Har qanday fikr yoki taklif aniq dalil, fakt, tajriba yoki nazariy asosga tayangan bo‘lishi kerak. Argumentlash jarayoni muloqot, bahs yoki muhokama shaklida bo‘lib, bunda fikrlar sintezlanadi va aniqlashtiriladi. Shu nuqtayi nazaridan, dasturiy ta’minotimizda keltirilgan mavzular o‘zaro bog‘liq, mantiqiy ketma-ketlikda bayon etilgan. Natijada, talabalarning tanqidiy va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish va uni asoslash ko‘nikmalari rivojlanadi. Darsda o‘z fikrini aniq va dalillarga tayangan holda ifodalashni o‘rgatadi.

Shunday qilib, argumentlash tamoyili asosida talabalar har qanday fikr, g‘oya yoki yechimni asosli, dalillarga tayangan va mantiqiy tarzda ifodalash ko‘nikmalari rivojlanadi.

Ko‘rgazmalik tamoyili. Talabalarning “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini mukammal o‘zlashtirishi, o‘qitish jarayonida o‘quv materialini ko‘rish, eshitish, tajriba qilish orqali tushunarli, ta’sirchan va esda qoladigan shaklda yetkazishga asoslangan. “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini dasturiy ta’minot asosida infografika, prezentatsiya, grafik illyustratsiyalar, simulyatsiyalar orqali nazariy bilimlarni amaliy ko‘rsatishga mo‘ljallangan. Natijada talabalarning tafakkurini jonlantiradi, faol ishtirokini ta’minlaydi va bilimlarni mustahkam egallashga xizmat qiladi.

Ilmiylik tamoyili. Talabalarning “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini mukammal o‘zlashtirishi ushbu fanning ilmiy-nazariy hamda kasbiy metodologik asoslarini tizimli o‘qitish orqali amalga oshiriladi. Ilmiy bilish jarayoni olamdagi hodisalar, voqealar, obyektlar va ularning inson ongida aks etishi, shuningdek, qadriyatlarni anglash qonuniyatlarini tahlil qilish hamda ularni baholash mezonlarini aniqlash bilan bevosita bog‘liqdir.

Uzluksizlik tamoyili. Kiberxavfsizlik bo‘yicha ta’lim doimiy rivojlanish va axborot oqimining uzluksizligini ta’minlash orqali talabalar bilimini oshirishga qaratilgan. Axborot tahdidlari dinamik tarzda o‘zgarib borayotgan sharoitda ushbu fan muntazam ravishda takomillashtirilib, yangi tahdid va hujum modellari asosida boyitib borilishi lozim. Ushbu tamoyil kasbiy rivojlanish jarayonini tizimli tarzda yo‘lga

qo‘yish, axborot xavfsizligi bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish va uzluksiz ta’lim sharoitida bilimlarni amaliyotga tadbiq qilishni ta’minlaydi.

Asoslilik tamoyili (fundamentallik). Mazkur tamoyil kiberxavfsizlik asoslari fanining nazariy asoslarini chuqur o‘rganish, uning huquqiy, texnik va amaliy jihatlarini to‘liq qamrab olishga yo‘naltirilgan. Bunda talabalar mustaqil ravishda kasbiy bilimlarini boyitish, axborot xavfsizligi bo‘yicha ilg‘or texnologiyalarni o‘rganish asnosida real amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Fanlararo aloqadorlik tamoyili. Kiberxavfsizlik sohasi faqatgina informatika yoki texnik fanlar bilan chegaralanib qolmay, balki matematika, fizika, huquqshunoslik, falsafa kabi fanlar bilan uzviy bog‘liq. Ushbu tamoyil quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kiberxavfsizlikni o‘rganishda huquqiy va axloqiy mezonlarni tushunish; kriptografiya, kodlash va axborot himoyasi bo‘yicha matematik usullarni tadbiq qilish; axborot texnologiyalari bilan bog‘liq muammolarni hal qilishda turli fanlarning integratsiyalashuvi.

Xalqaro tajribalarga ko‘ra, elektron va axborot-didaktik vositalarni joriy qilish orqali turli geografik hududlardan ta’lim oluvchilarning interaktiv muloqotini tashkil etish pedagogik samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Axborotni himoyalash tamoyili. Bu tamoyil axborot xavfsizligini ta’minlash, ma’lumotlarni shifrlash va kodlash orqali ularning maxfiyligini himoya qilishga qaratilgan. Ushbu tamoyil quyidagi asosiy jihatlarni qamrab oladi: kodlashtirish – axborotni boshqa formatga o‘tkazish orqali ularning buzilishining oldini olish; kriptografiya – maxfiy ma’lumotlarni himoya qilish uchun shifrlash algoritmlarini ishlab chiqish; kalit boshqaruvi – shifrlangan ma’lumotlarni ochish va qayta tiklash mexanizmlarini yaratish. Shuningdek, kriptoanaliz texnologiyalari ham o‘rgatiladi, bu esa shifrlangan ma’lumotlarni himoya qilish tizimlarini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Qadriyatli yondashuv tamoyili. Axborot xavfsizligi nafaqat texnik bilimlarni, balki kasbiy va axloqiy qadriyatlarni shakllantirishni ham talab qiladi. Ushbu tamoyil axborot etikasiga rioya qilish, inson huquqlari va axborot xavfsizligi tamoyillariga asoslangan holda ma’lumotlardan foydalanish kabi muhim masalalarni o‘z ichiga oladi.

Konfedensiallik, riskni boshqarishga oid blokda bu “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishda axborotni himoyalashga qaratilgan nazariy bilimlar bilan amaliy ko‘nikmalarni uyg‘unlashtirishga xizmat qiladigan yadro blok bo‘lib, u orqali talabalar axborotni himoyalashning texnik, huquqiy va boshqaruv jihatlarini chuqur o‘zlashtiradi. Konfedensiallik, riskni boshqarishni 4 bosqich doirasida olib boriladi.

Modelning metodologik ta’minotni rivojlantiruvchi blokda axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishdagi o‘qitish strukturasi, shakllari, metodlari, vositalari va shularni amalga oshirish uchun maqsad va vazifalarni, tushunchalar tahlilini funksiyasini o‘z ichiga oladi. Metodologik ta’minotni rivojlantiruvchi blokdagi asosiy quyidagi omillarni muhim ahamiyat kasb etadi: “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishda bo‘lajak o‘qituvchilarda axborotlar bilan ishlash va uni saqlash bo‘yicha pedagogik-metodik tayyorgarlik tubdan rivojlantirish; Mazkur fanni chuqur o‘rgatish va

ma’lumotlarni o‘zlashtirish bo‘yicha jahon standartlariga mos ta’minotni o‘zlashtirishga yo‘naltirish.

Modelning kiberxavfsizlik asosini sintezlash asosi blokida axborot kontekstli o‘qitishning mavjud holatini aniqlash, axborot kontekstining mazmunini anglash, kompyuterdagi informatsiyalarni, subyektiv ma’lumotlarni bloklashni o‘rganish, fuqarolarning konstutsiyaviy huquqlari va erkinliklari bo‘yicha axborotlar bilan ishlash bilimlarini kengaytirish, kiberxavfsizlik fani bo‘yicha yangi metodik ta’minotni yaratishga yo‘naltirishni qamrab oladi.

Keltirilgan takomillashtirish modeli asosida o‘quv jarayonini tashlil etishda mobil ilovalarning o‘rni beqiyosdir. Hozirda ta’lim sohasida mobil ilovlardan foydalanish muhim axamiyat kasb etmoqda, yaratilgan ko‘plab mobil ilovalardan talabalar foydalanib kelishmoqda, ammo yaratilgan mobil ilovalarning ko‘p qismi to‘g‘ri va asosli ma’lumotlar joylashtirilmaganligini kuzatish mumkin. Bu vaziyatning yuzaga kelishiga asosiy sabab sifatida milliy va zamonaviy mobil ilovalarning ozligida deyishimiz mumkin. Buning oldini olishda biz asosan milliyligimizni o‘zida aks ettirgan mobil ilovalarni yaratish zaruriyati paydo bo‘ldi. Mazkur ilova “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda kiberxavfsizlik asoslari fanining asosiy tushunchalari, kiberhujumlardan himoyalanishning nazariy asoslari keltirildi.

Natijada mobil ilovaning asosiy menyusida ma’lumotlar va bo‘limlarning qidiriv bloki, fanning ma’ruza mashg‘lotlari keltirilgan qism, fanning amaliy mashg‘ulotlari keltirilgan qism va egallangan bilimlarni baholash jarayonini amalga oshirish uchun testlar bloki keltirilgan. Har bir bo‘linmalarning joylashuvi, belgilari va tanlangan dizayini o‘qitish uchun xizmat qiladigan mobil ilovalarga qo‘yilgan meyorlar asosida hamda fanning xususiyatlarini inobatga olib ishlab chiqildi.

Ilovaning Ma’ruza va amaliy bo‘limida “Kiberxavfsizlikning asosiy tushunchalari”, “Kiberjinoyatchilik, kiberqonunlar va kiberetika”, “Inson faoliyati xavfsizligi”, “Kiberxavfsizlik arxitekturasi, strategiyasi va siyosati”, “Kriptografiyaning asosiy tushunchalari”, “Simmetrik kriptografik algoritmlar”, “Ochiq kalitli kriptotizimlar”, “Ma’lumotlar yaxlitligini ta’minlash usullari”, “Disklarni va fayllarni shifrlash”, “Ma’lumotlarni xavfsiz o‘chirish usullari”, “Identifikatsiya va autentifikatsiya jarayonini tashkil etuvchi vositalari”,



3-rasm. “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitish mobil ilovasi

“Ma’lumotlardan foydalanishni mantiqiy boshqarish”, “Ko‘p sathli xavfsizlik modellari”, “Ma’lumotlarni fizik himoyalash”, “Kompyuter tarmoqlari va tarmoq xavfsizligi muammolari”, “Tarmoq xavfsizligini ta’minlovchi vositalar”, “Simsiz tarmoq xavfsizligi”, “Risklarni boshqarish”, “Foydalanuvchanlik tushunchasi: zaxira nusxalash, ma’lumotlarni qayta tiklash va hodisalarni qaydlash”, “Dasturiy vositalardagi xavfsizlik muammolari”, “Kompyuter viruslari va virusdan himoyalanish muammolari”, “Qayd yozuvini himoyalash”, “Ijtimoiy injineriyaga qarshi himoya” mavzulari pdf shaklda hamda videodars ko‘rinishida ma’lumotlar keltirilgan.

Bundan tashqari ilovada talabalar va foydalanuvchilar ushbu fandan olgan bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun test topshiriqlari bo‘limi mavjud bo‘lib, unda foydalanuvchi o‘zi bajarmoqchi bo‘lgan testlar sonini tanlashi (15. 30 va 50 ta testdan iborat) hamda topshiriqlarning bajarish muddatini ma’lum vaqt doirasida yoki vaqtni belgilamasdan amalga oshirish imkoniyati mavjud.



4-rasm. Talabalar bilimlarini nazorat qilish va baholash uchun test topshiriqlari

Dasturiy-metodik ta’minot yaratish individual tarkibiy qismlarini rivojlantirish, zarur kasbiy bilimlarni kengaytirish va ko‘nikmalarni takomillashtirish, pedagogik va texnologik shart-sharoitlarni tashkil etish, kasbiy kompetentlik darajasini oshirish va kasbiy mavqega erishish darajasini ta’minlash, kasbiy faoliyat samaradorligining natijasini aniqlash, mustaqil va uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini qo‘llash algoritmini pedagogik faoliyat va kasbiy rivojlantirish kombinatsiyasi imkoniyatlari hamda qayta aloqani ta’minlovchi majmuani mujassamlashtirgan obyekt va subyekt o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir tizimi uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

“Differensial o‘qitish” texnologiyasi (“Differential teaching” technology)

Maqsadi: talaba – professor o‘qituvchining individual xususiyatlari – axborot xavfsizligi bilan ishlash qobiliyati va turli informatsiyalarni himoyalashdagi

kiberxavfsizlik bo‘yicha bilimlarini oshirish hamda uning imkoniyatini hisobga olgan holda o‘qitishdan iborat.

Mohiyati: ushbu texnologiya axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishda har bir ta’lim oluvchining intellectual rivojlanish doirasiga mos keluvchi faoliyatini hisobga olgan pedagogik sharoit yaratishni va differensial darajali o‘qitishni ko‘zda tutadi.

Mexanizmi: axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishda shaxsning dinamik xarakteristikasi tashxisi va o‘quv malakalarni egallash darajasi asosida o‘qitish; bilim olish va qiziqishlari yo‘nalishlariga bog‘liq holda tanlash; profil o‘qitish variantlari bo‘yicha tashkil etish; bilish mazmunini faollashtirish va talaba yoshlarning bilish faoliyatlarini rag‘batlantirish; o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasini ixtiyoriy tanlash, kompyuter tizimida elektron shaklda mustaqil ishlarini joriy etish; o‘quv jarayonini yakka, guruhiy va jamoaviy shakllarda tashkil etish; o‘quv materiali o‘zlashtirilishi ustidan nazorat o‘tkazish; o‘qitiladigan fanlarni o‘qitish zamonaviy metodikasini yaratishga intilish; shaxsiy ta’lim rejasi bo‘yicha tezkor o‘qitishva axborotni himoya qilish bo‘yicha tavsiyalar berishdan iborat.

Dissertatsiya ishining **“Axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari va samaradorligi”** deb nomlanib, unda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning baholash mezonlari, tajriba sinov ishlari tahliliva samaradorligi hamda natijalari bayon qilingan.

Tajriba-sinov ishlari Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand, Qarshi va Farg‘ona filiallarida olib borildi. Tajriba-sinov ishlariga birinchidan to‘rtinchi bosqichning 497 nafar talabalari jalb etildi. Bundan tajriba guruhlarida – 248 nafar va nazorat guruhlarida – 249 nafar talaba ishtirok etdi

Tajriba sinov ishlari “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari uch bosqich (ta’kidlovchi, rivojlantiruvchi, yakunlovchi)da amalga oshirildi.

Tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda boshlang‘ich, joriy va yakuniy monitoring olib borildi. Bunda kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, test va pedagogik eksperiment usullaridan foydalanildi. Tajriba o‘tkazish davomida talabalarda axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’miontini takomillashtirish, kiberxavfsizlikka oid kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadida, o‘quv hamda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalarining nazariy-pedagogik, amaliy asoslarini ilmiy asoslashdan iborat bo‘ldi.

Tadqiqotning shakllantiruvchi tajriba-sinov bosqichida axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha o‘quv fani dasturi asosida respondent-talabalarning innovatsion ta’lim metodlari va zamonaviy texnologiyalari vositasida axborotlar bilan ishlash kiberxavfsizlikka oid quyidagi mezonlari rivojlantirildi:

O‘quv kognitiv mezonlar: axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha o‘quv fani dasturi asosida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassis kasbiy

kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha talabalarning elektron tarzdagi axborotlarning egallanishi va ular yuzasidan ilmiy- nazariy bilimini kengaytirish, psixologik-pedagogik bilimlari yosh va individual, psixofiziologik xususiyatlarini, o‘quv jarayonini tashkil qilish shakl, metod va vositalarini, talabalarni tashxislashning asosiy metodikasini, innovatsion pedagogik texnologiyalarni bilishi;

Kommunikativ tafakkur qilish mezon: talabalarda axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yisha o‘quv fani dasturi asosida kommunikativ bilim, ko‘nikma va malakalar – o‘quv- pedagogik ta’lim jarayonida talabalar bilan metodik ta’minotni yaratish layoqatini o‘stirish, tafakkur qilish mahoratini va muloqot qilish kompetentligini takomillashtirish;

Integrativ-kreativ mezonlar: axborotlar xuruji davrida “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish bo‘yicha o‘quv fani dasturi asosida turli fanlararo o‘zaro aloqadorlikni kasb etuvchi integrativ yondashuv asosida axborotlar xavfsizligi bilan ishlash kasbiy kompetentligini rivojlantirish qobiliyati, kreativ sifat va salohiyati o‘sishga xizmat qiluvchi adabiyotlar bilan tanishib chiqishga yo‘naltirish, fikrlash qobiliyatini o‘stirish.

Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish jarayonida integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini rivojlantirish darajalari aniqlashtirildi. Dissertatsiyada integrativ yondashuv asosida bo‘lajak mutaxassislarning “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishning samaradorligini “yuqori”, “o‘rta”, “past” darajalari mezonlari ko‘rsatib berildi.

1-jadval. “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishga qaratilgan tajriba sinov ishlarida tajriba va nazorat guruhlarida ishtirok etgan respondentlar soni

1-jadval

Barcha oliy ta’lim muassasalarida tajriba sinov ishlarida tajriba va nazorat guruhlarida ishtirok etgan respondentlar soni

Tajriba-sinov ishlaridan “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishga va ularning ushbu fan doirasida bilish darajasini aniqlashga qaratilgan yuqorida keltirilgan talabalarda “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirishning mavjud holatini aniqlashga yo‘naltirilgan anketa savollari, talabalarning kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligini ta’minlash muammosi internetning ishlash

OTM	Tajriba guruhlari	Nazorat guruhlari	Jami
Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samaraqand filiali	83	82	165
Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filiali	82	83	165
Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Farg‘ona filiali	83	84	167
Jami	**248**	**249**	**497**

sharoitlarida muhim kasbiy sifatlarini rivojlantirish tizimiga hamda kurs mavzusi asosida o‘quv va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda axborotlar bilan ishlash madaniyatni maqsadga muvofiq shakllantirish ko‘rsatkichlar va mezonlar asosida baholash ishlari olib borildi.

Berilgan anketa savollari bo‘yicha tajriba yakunidagi natijalarga nisbatan qo‘yilgan gipotezaga ko‘ra $\varphi_{emp} > \varphi_{krit}$ bo‘lgani uchun H1 gipoteza sifati qabul qilinadi. Bu esa olingan natijalarda farq mavjudligi va samaradorlikka ega ekanligini tasdiqlaydi.

Tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhlarida umumiy hisobda “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’miontini takomillashtirish va kasbiy sifatlarini rivojlantirishning “Kiberxavfsizlik bilan ishlashning mazmuni”, “Kiberxavfsizlik kompetentligining rivojlanish ko‘rsatkichi”, “Kiberetika madaniyatining rivojlanganligi” komponentlarini rivojlantirishning bilish darajalarida farqlar kuzatildi, ya’ni:

2-jadval

Barcha oliy ta’lim muassasalarining tajriba-sinov ishlari bo‘yicha umumiy natijalarining yakuniy ko‘rsatkichlari

Mezonlar	Komponentalar	Guruhlar	Baholash darajasi		
			yuqori daraja	o‘rta daraja	past daraja
o‘quv kognitiv	Kiberxavfsizlik bilan ishlashning mazmuni	TG	38	177	33
		NG	19	77	153
kommunikativ tafakkur qilish		TG	39	171	38
		NG	19	75	155
integrativ-kreativ		TG	37	178	33
		NG	19	78	152
o‘quv kognitiv	Kiberxavfsizlik kompetentligining rivojlanish ko‘rsatkichi	TG	42	180	26
		NG	21	74	154
kommunikativ tafakkur qilish		TG	45	167	36
		NG	22	72	155
integrativ-kreativ		TG	43	174	31
		NG	21	73	155
o‘quv kognitiv	Kiberetika madaniyatining rivojlanganligi	TG	51	182	15
		NG	24	90	135
kommunikativ tafakkur qilish		TG	48	180	20
		NG	24	89	136
integrativ-kreativ		TG	52	187	9
		NG	27	88	134

Tajriba va nazorat guruhlarida umumiy hisobda “Kiberxavfsizlik asoslari” fanini o‘qitishning dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish va kasbiy sifatlarini rivojlantirishning “Kiberxavfsizlik bilan ishlashning mazmuni”, “Kiberxavfsizlik kompetentligining rivojlanish ko‘rsatkichi”, “Kiberetika madaniyatining rivojlanganligi” komponentini rivojlantirishning bilish darajalari bo’yicha dastlabki natijalarning mezonlar va OTMlar bo’yicha statistik tahlili Styudent statistikasi asosida amalga oshirildi.

3-jadval

